XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 31 - avgust VI-83-71-2-0-K/23 Buxoro viloyati hokimligi

Jondor tumani “Boliob” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan “Ko‘salar” aholi punkti nomini “Oltinko‘za” aholi punkti nomiga o‘zgartirish to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasiga asosan hamda Jondor tumani hokimining “Boliob” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan “Ko‘salar” aholi punkti nomini “Oltinko‘za” aholi punkti nomiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi 2023-yil 18-iyuldagi 01/1744-sonli taklifini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

Q A R O R Q I L D I:

1. Jondor tumani hokimligining “Boliob” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan “Ko‘salar” aholi punkti nomini “Oltinko‘za” aholi punkti nomiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Jondor tumani hokimligi (J.Xudayev), viloyat statistika boshqarmasi (U.Jumanazarov)ga tegishli davlat ro‘yxatidan o‘tkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib hisobotlarga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

3. Viloyat hokimligi axborot xizmati (O.Jo‘rayev)ga mazkur qarorni “Buxoronoma” gazetasida hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinishini ta’minlash topshirilsin.

4. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Pardayeva) zimmasiga yuklansin.

Кенгаш раиси **B.K.Zaripov**